

MINTAQALARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI HUDUDIIY TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI SALOHIIYATIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich

*Namangan davlat texnika universiteti Menejment kafedrası mudiri, professori, iqtisodiyot fanlari
doktori (DSc)*

E-mail: mullabaev.bahtiyor@gmail.com

tel: +998939486868

Ismoilov Alisher Jobir o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi, (0000-0003-1583-9338)

presentutor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud hududiy tafovutlarni kamaytirishda qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlari chuqur ilmiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligining mintaqalararo nomutanosibliklarni bartaraf etishdagi o'rni xalqaro va milliy miqyosdagi statistik ko'rsatkichlar, ilmiy adabiyotlar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari asosida atroflicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatdagi mavjud tafovutlarni yumshatishda aynan qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlararo integratsiyani kuchaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan kengroq foydalanish zarurligi asoslandi. Xulosada hududlarda qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish va bu orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: hududiy tafovutlar, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi salohiyati, mintaqaviy integratsiya, nomutanosiblik, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilmani rivojlantirish, agrosanoat, hududlararo hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud nomutanosibliklarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining salohiyatidan samarali foydalanish orqali hududlararo iqtisodiy tengsizliklarni yumshatish mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan tahlillarda ta'kidlanishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tarmoqlari orqali mintaqalararo farqlarni kamaytirish amaliyoti keng qo'llaniladi va yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmonlarda qishloq xo'jaligi salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishga oid muhim yo'nalishlar aniq belgilab berilgan.

Shunga qaramasdan, respublika hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishda qishloq xo'jaligi salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan yetarlicha tadqiq qilinmagan. Ushbu ilmiy maqolada aynan ana shu dolzarb masalalarni yechishga qaratilgan nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlillar olib borilgan. Maqola orqali qishloq xo'jaligi salohiyatidan foydalanish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklar davlatlarning barqaror rivojlanishini sekinlashtiruvchi dolzarb muammolardan biri sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan ham qayd etilgan. Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida bu masalalar global rivojlanishning asosiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etiladi va ularni yechishda qishloq xo'jaligi sohasiga alohida urg'u beriladi [1]. OECD ning "Regional Development Policy" hisobotida ham mintaqalararo nomutanosibliklarni kamaytirishda agrar sektorning ahamiyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi [2]. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, agrar sohaning innovatsion rivojlanishi hududlarda iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni oshirishda samarali mexanizm hisoblanadi [3]. Shu sababli qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liq strategiyalarni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish va amalga oshirish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Agrar sohani samarali boshqarish orqali iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash va aholi farovonligini yaxshilash mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligining mahsuldorligini oshirish orqali hududlarda bandlik darajasini oshirish mumkinligi ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Hududiy rivojlanish siyosatini samarali shakllantirish uchun qishloq xo'jaligining innovatsion va raqamli yechimlarini keng tatbiq qilish zarurligi ilmiy tadqiqotlarda asoslangan [4].

Ushbu tadqiqotning maqsadi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rolini ilmiy asoslangan ravishda tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, hududiy iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va qishloq xo'jaligining bu jarayonlardagi ta'sirini baholash; agrar sektorda mahsuldorlikni oshirish va bandlik darajasini yaxshilashning ilmiy-metodik asoslarini shakllantirish; qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini baholash; mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligi sohasidagi strategik boshqaruv usullarini ishlab chiqish; hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan samarali foydalanish bo'yicha xalqaro va mahalliy tajribalarni o'rganish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xalqaro tajribaga ko'ra, qishloq xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda mintaqalararo tafovutlarni kamaytirishda muhim vositadir. Jumladan, Jahon bankining hisobotida agrar sohani rivojlantirish orqali qashshoqlikni qisqartirish va qishloq aholisining turmush darajasini oshirish qayd etilgan [1]. Bu yondashuv iqtisodiy rivojlanish nazariyasida agrar sektorning strategik ahamiyatini yanada oshirdi.

AQSh iqtisodchilari, jumladan, S.Kuznets va C.P.Timmer agrar sektordagi mahsuldorlikning oshishi iqtisodiy o'sish va daromadlar tengsizligini qisqartirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlashgan [5]. Ayniqsa, Timmer agrar sohaning ilk rivojlanish bosqichidagi o'sishi sanoat va xizmat sohalariga asos yaratishini nazariy asoslaydi.

Amerikalik olim J.Mellor tadqiqotlari agrar sektordagi o'sishning kambag'al qatlamlar daromadini oshirishdagi multiplikativ ta'sirini ko'rsatadi [6]. Uning fikricha, qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shimcha mahsulot sanoat va xizmat sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, hududlararo tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi.

Yevropalik tadqiqotchilar, jumladan E.Loizou va boshqalar Gretsiya misolida qishloq xo'jaligining iqtisodiy barqarorlik va mintaqaviy rivojlanishdagi rolini empirik ravishda aniqlashgan [7]. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi subsidiyalarining agrar tarmoqqa yo'naltirilishi mahalliy iqtisodiyot uchun sezilarli multiplikativ samara bergan.

Turkiyada agrar sektorning hududiy rivojlanishga ta'siri X.Yaman tadqiqotida chuqur o'rganilgan bo'lib, qishloq xo'jaligida diversifikatsiya va integratsiya mintaqaviy iqtisodiy farqlarni kamaytirish imkoniyatlarini ochib beradi [8].

Xitoy tajribasi orqali M.Ravallion va Sh.Chen agrar sohadagi rivojlanish kambag'allikni qisqartirish va hududlararo farqlarni kamaytirishda sanoat va xizmat sohalaridan samaraliroq ekanini isbotladilar [9].

Hindiston misolida olib borilgan tadqiqotlarda sug'orish va innovatsion texnologiyalar qo'llangan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsuldorligi oshishi mintaqaviy iqtisodiy farqlarni sezilarli darajada kamaytirganligi isbotlangan [10].

Xorijiy olimlar agrar sohaning asosiy tarmoqlari sifatida oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotchilik va chorvachilikka urg'u beradilar, ayniqsa, ekologik toza va organik qishloq xo'jaligi orqali hududiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatadilar [11].

O'zbekistonlik olimlar, jumladan Sh.Yuldasheva va O.Polatova tadqiqotlarida asosan paxta va g'allachilikning samaradorligini oshirish orqali hududiy rivojlanish va diversifikatsiyaga erishish masalalari ko'tariladi [12].

Mahalliy iqtisodchilar fikricha, O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari orqali chuqur qayta ishlash va mahsulot diversifikatsiyasi hududlarda iqtisodiy farqlarni kamaytirishda asosiy mexanizm hisoblanadi [12].

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyoslaganda, xorijda ko'proq agrar sektorning umumiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni urg'ulansa, O'zbekistonda esa tarmoqlar ichki tuzilmasi va an'anaviy ekinlarning modernizatsiyasi markaziy mavzudir [11; 12].

Mazkur tadqiqot xorijiy va mahalliy yondashuvlarni integratsiyalash orqali qishloq xo'jaligining qaysi tarmoqlari mintaqalararo nomutanosibliklarni samarali ravishda kamaytirishini aniqlash va agrar siyosat yo'nalishlarini optimallashtirish maqsadida olib boriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni shakllantiruvchi omillar kompleks ravishda

o‘rganildi. Bu orqali agrar sektorning iqtisodiy jarayonlardagi rolini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Iqtisodiy-statistik metodika yordamida O‘zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligining rivojlanish ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Hududlararo nomutanosibliklarni aniqlash uchun Gini koeffitsiyenti va Herfindal-Hirshman indeksi kabi iqtisodiy-statistik indikatorlardan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil orqali xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston tajribasi o‘zaro solishtirildi. Bu jarayonda AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarining ilmiy tadqiqotlari va amaliy tajribalari asos qilib olindi.

Tadqiqot doirasida hududlarda agrar tarmoqlarning iqtisodiy samaradorligi, bandlikni oshirish va hududiy farqlarni kamaytirishdagi multiplikativ ta’sirlari alohida e’tiborda bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda diversifikatsiya va integratsiyalashuv strategiyalarining samaradorligi baholandi.

Ushbu metodikalar orqali aniqlangan natijalar asosida mintaqalararo nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatining qishloq xo‘jaligi sektorida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va rivojlanish jarayonlari natijasida agrar ishlab chiqarish hajmi, mahsulot diversifikatsiyasi hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Quyida keltirilgan jadvallar asosida hududning qishloq xo‘jaligidagi mavjud holat tahlil qilinadi va uning hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishdagi o‘rni baholanadi.

Jadvallarda keltirilgan hosildorlik va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdorlari, viloyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash darajasi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab bilan ta’minot o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Bu ko‘rsatkichlar orqali agrar ishlab chiqarish samaradorligi hamda aholining oziqlanish sifati va iqtisodiy farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda baholash mumkin.

1-jadval.

Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi sektorining 2020-2024 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
YHMTda ulushi (%)	36,2	35,8	35,5	34,9	34,5
Mahsulot hajmi (mlrd.so‘m)	10845,2	11472,5	12195,7	12987,3	13850,1
Bandlik (ming kishi)	450,2	455,9	462,5	470,1	478,4
O‘rtacha ish haqi (ming so‘m)	1800,5	1950,3	2150,6	2370,2	2600,8
Investitsiyalar (mlrd.so‘m)	950,4	1020,5	1105,7	1190,6	1285,9

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi 2024-yil xisobotlari.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2020-2024 yillar davomida biroz kamaygan bo‘lsa-da, umumiy ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasi sezilarli darajada oshgan. Mahsulot hajmining yildan-yilga muntazam o‘sib borishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligining oshayotganidan dalolat beradi. Bu,

ayniqsa, viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va diversifikatsiya qilish jarayonlari kuchayganligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi sonining yillik o‘sishi mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu sektorning rolini yanada mustahkamlamoqda. Bandlik ko‘rsatkichining oshishi hududda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi va aholining yashash darajasi hamda farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘rtacha ish haqi va investitsiyalar hajmining o‘sishi qishloq xo‘jaligi sektorining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirib, iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday qilib, Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi sektori hududiy iqtisodiy rivojlanishda asosiy drayverlardan biri bo‘lib qolmoqda.

2-jadval.

Namangan viloyatida asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi (s/ga va ts/son)

Yil	Paxta	G‘alla	Meva	Sabzavot	Kartoshka	Poliz	Uzum	Go’sht (ts)	Sut (ts)
2020	28,4	55,7	112,3	210,4	152,3	178,5	136,7	245,6	976,3
2021	29,0	57,1	116,7	215,6	157,8	183,4	141,2	258,9	1023,5
2022	29,5	58,4	120,8	220,3	162,4	189,0	145,8	271,3	1068,2
2023	30,1	60,2	125,5	226,0	168,9	194,3	150,6	284,7	1114,6
2024	30,8	61,9	130,0	232,7	174,5	199,8	156,2	298,2	1160,9

Manba: Namangan viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, 2024.

Namangan viloyatida asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligining izchil o‘sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, paxta va g‘allachilikdagi barqaror o‘shish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, meva-sabzavot va kartoshkachilik mahsulotlari bo‘yicha ham hosildorlikning sezilarli ravishda oshishi, viloyat iqtisodiyoti diversifikatsiyasi hamda ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Go’sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror ravishda oshishi hudud aholisining oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘sishi, ayniqsa chorvachilik sektoridagi investitsiyalar samaradorligining yuqori ekanligini anglatadi. Shunday qilib, Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining turlari bo‘yicha kengayish va ishlab chiqarish hajmining oshishi viloyatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

3-jadval.

Namangan viloyatida asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining aholining bir nafariga to‘g‘ri keladigan miqdori (kg/aholi)

Yillar	Paxta	G‘alla	Meva	Sabzavot	Kartoshka	Poliz	Uzum	Go’sht	Sut
2020	14,2	27,9	56,2	105,2	76,2	89,3	68,3	12,3	48,8
2021	14,6	28,6	58,4	107,8	78,9	91,7	70,6	12,9	51,2
2022	14,9	29,2	60,4	110,2	81,2	94,5	72,9	13,5	53,4
2023	15,3	30,1	62,8	113,0	84,5	97,1	75,3	14,2	55,7
2024	15,7	30,9	65,0	116,4	87,3	99,9	78,1	14,9	58,0

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi va Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, 2024.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar Namangan viloyatida yil davomida aholining jon boshiga ishlab chiqarilgan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini aks ettiradi. Meva va sabzavot mahsulotlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, yil sayin o'sib bormoqda. Bu mahsulotlarning yuqori darajada ishlab chiqarilishi aholi oziq-ovqat xavfsizligi va sifatli ovqatlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Hosildorlik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi, ayniqsa, meva-sabzavotchilik tarmoqlarining mintaqaviy iqtisodiyotda strategik o'rin tutishini va bu sohalarida ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayayotganligini ko'rsatmoqda.

Go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan barqaror o'sishi, mintaqada chorvachilik sohasining rivojlanayotganligi va ushbu sohadagi investitsiyalar samaradorligining oshib borayotganligini anglatadi. Ushbu tendensiya aholining turmush darajasi, salomatligi va farovonligining oshishiga muhim hissa qo'shmoqda. Demak, Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi sektori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim va barqaror omil bo'lib qolmoqda.

Namangan viloyati aholisining 1 nafariga to'g'ri keladigan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ratsioni miqdori Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan belgilangan me'yorlar bilan taqqoslanganda ijobiy holatni ko'rsatmoqda. Xususan, sabzavot (116,4 kg) va meva (65,0 kg) mahsulotlari ishlab chiqarilishi JSST tavsiya qilgan minimal yillik norma (mos ravishda 100 kg va 60 kg) bilan mos kelmoqda yoki undan oshmoqda [13]. Bu holat viloyat aholisi uchun yetarli va balanslangan oziq-ovqat ta'minotini anglatadi.

Shu bilan birga, go'sht (14,9 kg) va sut mahsulotlari (58,0 kg) ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tashkilotning tavsiyalariga (go'sht – 20 kg, sut – 90 kg) nisbatan pastroq bo'lib qolmoqda. Bu esa, viloyatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Go'sht va sut mahsulotlari iste'molini oshirish orqali aholining salomatligi va umumiy oziqlanish sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Umuman olganda, Namangan viloyatida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi ehtiyojlarini qondirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ammo chorvachilik mahsulotlari, ayniqsa go'sht va sut ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi zarur. Bu yo'nalishda davlat tomonidan investitsiya hajmini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish choralarini amalga oshirish kerak bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi sektorining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi yildan-yilga biroz kamaygan bo'lsa-da, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va bandlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'smoqda. Bu holat sektorning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Viloyat aholisining oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga yaqin bo'lib, ayniqsa, sabzavot va meva mahsulotlari ishlab chiqarishda belgilangan me'yorlarga to'liq javob beradi. Biroq, chorvachilik mahsulotlari (go'sht va sut) ishlab chiqarish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan hali to'liq foydalanilmagan.

Hosildorlik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishi va mahsulotlar diversifikatsiyasining kuchayishi mintaqaviy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining rolini oshirib, hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda asosiy omil bo'lmoqda.

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin:

Birinchidan, agrar sektorning chorvachilik yo'nalishini rivojlantirish va modernizatsiya qilish zarur. Buning uchun davlat tomonidan chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar, kreditlar va investitsiyalar hajmini oshirish hamda chorva mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va chuqur diversifikatsiya qilish orqali viloyat iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirish tavsiya etiladi. Shu orqali mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilib, daromadlar darajasini yanada oshirish mumkin.

Uchinchidan, Viloyatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish uchun logistika va marketing infratuzilmasini rivojlantirish lozim. Ayniqsa, eksport salohiyati yuqori bo'lgan meva-sabzavot va uzumchilik mahsulotlarini eksport qilish uchun maxsus agrologistik markazlar tashkil qilish zarur.

To'rtinchidan, agrar sohada raqamli texnologiyalar va innovatsion echimlarni joriy etishni jadallashtirish, jumladan, “aqlli” fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va mahsulot yetishtirishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya qilinadi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligida klaster usulini keng joriy qilish orqali ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, shu orqali mahsulot tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kerak.

Shunday qilib, yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi sektorining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli yanada kuchayadi va hududlararo iqtisodiy farqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. World Development Report 2020: Agriculture for Development. Washington, DC: World Bank, 2020.
2. OECD. Regional Development Policy. Paris: OECD Publishing, 2021.
3. FAO. The State of Food and Agriculture: Innovation in Agriculture, Rome: FAO, 2020.
4. European Commission. Digitalising the agricultural sector: Opportunities and challenges, Brussels: EC Publishing, 2021.
5. Timmer C.P. A World Without Agriculture: The Structural Transformation in Historical Perspective. AEI Press, 2009.
6. Mellor J.W. Agricultural Development and Economic Transformation: Promoting Growth with Poverty Reduction. Palgrave Macmillan, 2017.
7. Loizou E., Karelakis C., Galanopoulos K., Mattas K. The role of agriculture as a development tool for a regional economy. *Agricultural Systems*, 173: 482–490, 2019.

8. Yaman H. The Role of Agriculture in Regional Development: Determination and Recommendations from the Case of TR61 Region in Türkiye. *Manas Journal of Agriculture, Veterinary and Life Sciences*, 14(2): 116–124, 2024.
9. Ravallion M., Chen S. China's (uneven) progress against poverty. *Journal of Development Economics*, 82(1): 1–42, 2007.
10. Bhalla G.S., Singh G. Agricultural Growth and Regional Variations in India: A District-level Analysis. *Economic and Political Weekly*, 36 (13): 1069–1077, 2001.
11. Юсупов Ю. Аграрный сектор Узбекистана: особенности, ключевые проблемы, необходимость реформ. Center for Economic Development, 2019.
12. Yuldasheva Sh.A., Polatova O.X. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlari. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot” konferensiyasi materiallari, 2023.
13. World Health Organization. Dietary Recommendations; Fruit and vegetables for health. WHO Report, 2020. WHO Nutrition Guidelines, 2021.